

## KUNGABOQAR PARVONASI (*HOMOEOSOMA NEBULELLA*) NING ZARARI

S.Mirzayeva – q.x.f.n., professor  
Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada kungaboqar parvonasi (*Homoeosoma nebulella* Hb) ning biologiyasi va zarari hamda unga qarshi kurash choralarining samaradorligi bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari keltirilgan. Tadqiqotlarda zararkunandaga qarshi samarali insektitsid Avaunt 15% em.k. 0,4 l/ga qo‘llanilganda biologik samaradorlik nazoratga nisbatan 84,0 % ni tashkil etgan.  
**Kalit so‘zlar.** Tadqiqot, kungaboqar, zararkunanda, kungaboqar parvonasi, biologiyasi, zarari, biologik samaradorlik

## ПОРАЖЕНИЕ ПОДСОЛНЕЧНОЙ СОЛЮЮ (*HOMOEOSOMA NEBULELLA*).

Мирзаева С.  
доктор медицинских наук, профессор  
Андижанский институт сельского  
хозяйства и агротехнологий

**Аннотация:** В статье представлены результаты исследований биологии и вреда подсолнечной плодожорки (*Homoeosoma nebulella* Hb) и эффективности мер борьбы с ней. В исследованиях применения против вредителя эффективный инсектицид Аваунт 15% эм.к. 0,4 л/га, биологическая эффективность составила 84,0% по сравнению с контролем.  
**Ключевые слова.** Исследования, подсолнечник, вредитель, подсолнечная моль, биология, вредность, биологическая эффективность

## DAMAGE OF THE SUNFLOWER MOTH (*HOMOEOSOMA NEBULELLA*).

S. Mirzayeva  
PhD, professor  
Andijan Institute of Agriculture  
and Agrotechnologies

**Annotation:** The article presents the results of studies of the biology and harm of the sunflower codling moth (*Homoeosoma nebulella* Hb) and the effectiveness of measures to combat it. In studies of use against the pest, the effective insecticide Avaunt 15% em.c. 0.4 l/ha, biological efficiency was 84.0% compared to the control.

**Key words.** Research, sunflower, pest, sunflower moth, biology, harmfulness, biological effectiveness

Mamlakatimizda aholini oziq-ovqat, sanoatni xom-ashyo bilan ta'minlashda muhim soha - qishloq xo'jaligini rivojlantirishga muhim strategik yo'nalish sifatida alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Shu jihatdan davlatimiz rahbari tomonidan joriy yil 7 iyunda "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilinganligi bu yo'nalishdagi yana bir muhim qadam bo'ldi.

### **KUNGABOQAR PARVONASI (*Homoeosoma nebulella* Hb.) GA QARSHI QO'LLANILGAN KIMYOVIY KURASHNING BIOLOGIK SAMARADORLIGI**

1- jadval

№	Variantlar	Tekshi -rish kunlari	Prepa -rat sarf-me'y ori l/ga	Preparat sepishgacha parvona soni o'rtacha (1bargda/dona)			Samaradorlik, % hisobida, kunlarga			O'rtacha biologik samaradorlik, % hisobida	
				Ishlo v gach a	Ishlovdan keyin		3	7	14		
					3	7					14
1	Nazorat (himoyasiz )	05.09	-	18,8	20,8	22,9	24,8	-	-	-	-
2	Tajriba Avaunt, 15% em.k.	05.09	0.4	19,5	3,8	3,2	2,4	80,6	83,6	87,7	84,0

Kungaboqar (*Helianthus annuus* L.) hozirgi kunda dunyoda eng muhim ahamiyatli moyli ekinlardan biri hisoblanadi. Kungaboqar oziq-ovqat moyi sifati jihatidan tanlangan o'simlik moylari orasida birinchi o'rinni egallamoqda. Shu sababli, dunyoda ko'plab davlatlarda ekin maydoni va undan olinadigan hosil miqdoriga qarab iqtisodiy samaradorlik darajasi ortib borishi kuzatilmoqda. So'nggi besh yillikda kungaboqar yer yuzidagi 72 ta mamlakatda o'rtacha 25-26 mln. gektardan ortiq maydonda yetish-tirilib, o'rtacha 40,5-42,0 mln. tonna hosil yetishtirilgan [1].

Dunyo mamlakatlari bo'yicha eng ko'p kungaboqar yetishtiruvchi mamlakatlar ro'yxatida: Ukraina, Rossiya, Argentina, Ruminiya va Xitoy davlatlari yetakchilik qilib qilmoqda. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda kungaboqar ekin maydo-ni ortib 17,5 ming gektarni va o'rtacha hosildorlik 12-15 s/ga ni tashkil etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yilning 4- martdagi "Mavjud yer maydonlaridan samarali foydalanish va 2021 yil hosili uchun qishloq xo'jaligi ekinlarini oqilona joylashtirish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, joriy yilda 305 ming gektar maydonda moyli ekinlar yetishtirildi.

Kungaboqarda turli zararkunanda va kasalliklar zarar keltiradi. Zararkunandalar orasida ildizqirqar: kuzgi tunlam, хрусц va qarsildoq qo'ng'iz qurtlaridan tashqari bir qator poya, barg va meva savatini zararlaydigan turlar mavjud.

Bularning orasida kungaboqar parvonasi – (*Homoeosoma nebulella* Hb.) Kungaboqar ekib o'stiriladigan barcha yerlarda tarqalgan; o'simlik xosildorligiga katta ziyon yetkazadigan xashorat. Bu, parvonalar (*Pyralidae*) oilasiga mansub, kapalagi qanot yozganda 20-27 mm keladi. Oldingi qanoti ensiz, oqish yoki kul rangda, qanotining o'rtasiga yaqinroq joyida hamma vaqt aniq ko'rinib turmaydigan to'rtta qoramtir nuqta bor; keyingi qanoti birmuncha enliroq va oqishroq bo'ladi. Kapalakning paypaslagichlari yuqoriga qayrilgan; oldingi qanotida uchinchi radial tomir yo'q; keyingi qanotidagi medial tomir ikkita shoxlagan. Tuxumi oq, yaltiroq, 0,8 mm kattalikda bo'ladi [2].

Qurtining bo'yi 1 sm ga yetadi; rangi och kul tusli, usti sal qoramtirroq; orqasi bo'ylab uchta jigar rang yo'l o'tadi; biqinida nafas olish teshiklari bo'ylab bittadan qoramtir chiziq o'tadi. Qurt tanasi tukchalar bilan siyrak qoplangan. Juda chaqqon – bezovtalangan qurt o'zini tashlab yuboradi.

G'umbagi 9-12 mm kattalikda; jigar rangda; tanasining oxirida bulavkasimon yo'g'onlashgan 6-7 ta tikanchasi bor; urchuqsimon pishiq oqish pillasiga joylashib oladi; uning uchiga ko'pincha tuproq zarrachalari ilashgan

bo'radi. Zararkunanda tuproqda yengil pilla ichidagi oxirgi yosh qurt shaklida qishlab chiqadi.

Kapalak ucha boshlaganidan keyin tez orada uning urg'ochisi tuxum qo'yishga kirishadi; bunda kapalak kungaboqarning yoki boshqa murakkabgulli o'simliklarning guldastasidagi gul otaliklariga, ba'zan gul onaligiga va gullarning ichki sathiga bittadai tuxum qo'yadi. Kapalak kungaboqarning bitta savatchasiga juda ko'p tuxum qo'yishi mumkin. Bitta urg'ochi kapalak 200-300 ta tuxum qo'yadi.

Kungaboqar parvonasi barcha kungabokar yetishtiriladigan hududlarda keng tarkalgan. Bu parvonaning kapalaklari kungabokar gullash davrida paydo buladi va gul savatchalariga ko'plab tuxum qo'yib ko'payadi, kurtlar asosan kungabokar guli bilan oziqlanadi. Katta yoshga o'tgan sari mevasining ichiga kirib, murtagini shikastlaydi. Ayrim savatlardagi urug'lar shunchalik kuchli zararlanadiki, ularning orasidan birorta shikastlanmaganini topib bo'lmaydi. Zararkunandaning zarari kungabokarda 45-65% ni tashkil kiladi.

Zararkunandaga qarshi samarali insektitsid sinash maqsadida tadqiqotlar olib borildi. Tadqiqot Andijon viloyati sharoitida kungabokar ekilgan maydonda olib borilib, nazorat albatta erta yoki kech salqinda o'tkazildi. Bu jarayonda xar bir o'simlikning zararlangan 3 ta bargidagi yetuk zot sanaldi va o'rtachasi hisobga olindi. Bunday o'simlikdan har bir variant takrorida 10 tasi tekshirildi. Tuxum va kurtlari zararlangan bargning o'rtacha 1 sm<sup>2</sup> sathiga nechta to'g'ri kelishi aniqlandi. Buning uchun bargning chamalab chizilgan, o'rtacha zararlangan bo'lagi olindi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida kungaboqar parvonasiga qarshi kimyoviy kurash - Avaunt 15% em.k. insektitsidini 0,4 l/ga qo'llash yetarlicha yuqori samara berishi tasdiqlandi (1- jadval).

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. B.Xalmuratova, B.Qoldasbaeva, Z.Mambetova. Qoraqalpog'iston sharoitida kungaboqarning "Navro'z" navi ahamiyati va uni yetishtirishning tuproqqa ta'siri.

2. Хо‘jaev Sh.T. Umumiy va qishloq xo‘jalik entomologiyasi hamda uyg‘unlashgan himoya qilish tizimining asoslari. T., "Yangi nashr" nashriyoti, 2019 yil.

3. Мирзаева, С. А., Азнабакиева, Д., Турдиева, Д., & Гафурова, Г. (2017). Значение фитопатогенных микромицетов. In *Результаты фундаментальных и прикладных исследований в области естественных и технических наук* (pp. 74-77).